DYUSPATALIN® DORI VOSITASI HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

O'zbekiston Respublikasi SSV ro'yxatga olish guvohnomasi: DV/X 02317/10/16, 05.11.2026 yilgacha amal qiladi.
Dori shakli. Uzoq ta'sir qiluvchi kapsulalar.
Tarkibi. 1 kapsulada 200 mg mebeverin gidroxloridi mavjud.
Farmakoterapevtik guruhi. Spazmolitik vosita. **ATX kodi:** A03A A04.
Qo'llanilishi. Kattalar va 10 yoshdan oshgan bolalarda. Irritabiy ichak sindromi bilan bog'liq ichak sohasidagi og'riq, spazmlar, funksional buzilishlar va noqulaylikni simptomatik davolash. Oshqozon-ichak trakti a'zolari spazmlarini (shu jumladan organik kasalliklar bilan bog'liq spazmlarni) simptomatik davolash.
Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar. Faol modda yoki preparat tarkibidagi yordamchi moddalardan birortasiga yuqori sezuvchanlik. Homiladorlik va emizish davri. 10 yoshgacha bo'lgan bolalar (ushbu dori shakli uchun).
Qo'llash usuli va dozalari. Kapsulalarni yetarli miqdordagi suv (kamida 100 ml) bilan butunligicha yutish kerak. Kapsulalarni chaynash mumkin emas, chunki qobig'i faol moddaning uzoq muddat davomida ajralib chiqishini ta'minlaydi. *Kattalar va 10 yoshdan oshgan bolalar.* Kuniga 2 marta 1 kapsuladan: ertalab va kechqurun. Davolash samaradorligini to'liq baholash uchun preparatni kamida 6-8 hafta davomida qabul qilish tavsiya etiladi, garchi simptomlar yengillashuvi odatda 2-4 hafta ichida kuzatilsa ham. Preparatni qabul qilish davomiyligi cheklanmagan. *Maxsus bemorlar guruhlari*: Keksa yoshdagi bemorlarda, buyrak va/yoki jigar faoliyati buzilgan bemorlarda dozani o'zgartirish talab etilmaydi.
Nojo'ya ta'sirlari. Quyidagi nojo'ya reaksiyalar preparatni ro'yxatdan o'tkazilgandan keyingi davrda qayd etilgan. Mavjud ma'lumotlar ularning uchrashish tez-tezligini aniq baholash uchun yetarli emas. Allergik reaksiyalar asosan teri tomonidan kuzatilgan, ammo allergiyaning boshqa ko'rinishlari ham qayd etilgan. Teri va teri osti to'qimalari tomonidan: Eshakemi (urtikariya), angionevrotik shish, yuz shishi. ekzantema. Immun tizimi tomonidan: O'ta yuqori sezuvchanlik reaksiyalari (anafilaktik reaksiyalar).
Maxsus ko'rsatmalar. Mavjud emas. *Homiladorlik.* Homilador ayollarda mebeverinni qo'llash bo'yicha ma'lumotlar yetarli emas. Homiladorlik davrida *Dyuspatalin®* preparatini qo'llash tavsiya etilmaydi. *Emizish davri.* Mebeverin yoki uning metabolitlari ko'krak sutiga o'tishi noma'lum. Emizish davrida *Dyuspatalin®* preparatini qabul qilish tavsiya etilmaydi. *Fertillik* Preparatning erkaklar va ayollar fertilitetiga ta'siri bo'yicha klinik ma'lumotlar mavjud emas. Biroq, hayvonlarda o'tkazilgan tadqiqotlarda *Dyuspatalin®* preparatining nojo'ya ta'siri aniqlanmagan. *Bolalarda qo'llanilishi. Dyuspatalin®* preparatini 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda qo'llash tavsiya etilmaydi, chunki ushbu yosh guruhi uchun klinik ma'lumotlar yetarli emas. 200 mg mebeverin gidroxloridi saqlovchi uzoq ta'sir qiluvchi kapsulalar faol modda miqdori yuqori bo'lganligi sababli 3 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarda qo'llanilmasligi kerak. *Transport vositalarini boshqarish va mexanizmlar bilan ishlash qobiliyatiga ta'siri.* Maxsus tadqiqotlar o'tkazilmagan. Preparatning farmakologik xususiyatlari va uni qo'llash tajribasi mebeverinning avtomobil boshqarish yoki mexanizmlar bilan ishlash qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligini ko'rsatadi.
Dori vositalari bilan o'zaro ta'siri. Ushbu preparatning alkogol bilan o'zaro ta'siri o'rganilgan. Hayvonlarda o'tkazilgan in vitro va in vivo tadqiqotlar Dyuspatalin® preparati bilan etil spirti o'rtasida o'zaro ta'sir mavjud emasligini ko'rsatgan.
Berilish shartlari. Retseptsiz beriladi.
Ishlab chiqaruvchi. Mylan Laboratories SAS, Route de Belleville, Lieu-dit Maillard, 01400 Châtillon-sur-Chalaronne, Fransiya.
Dyuspatalin® preparatini qo'llash bo'yicha yo'riqnomaning 05.11.2021 yildagi to'liq matni bilan tanishing.
MA'LUMOT MUTAXASSISLAR UCHUN MO'LJALLANGAN.
Qo'shimcha ma'lumot olish uchun "Abbott Laboratories GmbH"ning O'zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasiga murojaat qilishingiz mumkin: 100015, Toshkent shahri, Oybek ko'chasi, 38A. Tel.: +998 78 129 05 50 (sutka davomida). E-mail: pv.cis@abbott.com.